

**O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA
PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYANING O'RNI****Choriyeva Durdona Anvarovna***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim"**fakulteti Maktabgacha ta'lim nazariyasi**va metodikasi kafedrası dotsenti, PhD**Choriyevadurdona76@gmail.com***SOLOYEVA RAYHONNOY RAVSHANBEK QIZI***"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti magistri*

Bugungi kunda ta'limning demokratik modelini vujudga keltirish muhim masalalardan biridir. Ta'lim, ayniqsa, o'quv-biluv jarayoni demokratik modelining dastlabki elementi talaba shaxsining individual faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Pedagogik konfliktologiya bugungi ta'lim tizimida juda yuqori ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida nizolar ko'payib borayotgani ya'ni o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona o'rtasidagi kelishmovchiliklar zamonaviy ta'limda tez-tez uchramoqda. Pedagogik konfliktologiya bu nizolarni oldini olish va samarali hal etish yo'llarini o'rgatadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning rivojlanishida har bir o'quvchining xarakteri, dunyoqarashi va ehtiyojlari turlicha bo'lib, bu esa tabiiy ravishda ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Mazkur fan pedagoglarga individual yondashuv asosida nizolarni boshqarish ko'nikmalarini beradi. Psixologik sog'lom muhitni ta'minlash zarurati bo'lib, ta'lim muassasasidagi salbiy psixologik muhit o'quvchilarning bilim olishi va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik konfliktologiya sog'lom, do'stona va hamkorlikka asoslangan muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishi maqsadida zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki nizolarni to'g'ri boshqara oladigan, muloqot madaniyatiga ega shaxs bo'lishi kerak. Bu fan o'qituvchining kasbiy mahoratini va kommunikativ salohiyatini oshiradi. Ijtimoiy muammolar ta'sirining kuchayishi, globalizatsiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri o'quvchilar xulq-atvorida keskinliklarni keltirib chiqarmoqda. Pedagogik konfliktologiya bu omillardan kelib chiqadigan pedagogik nizolarni tushunish va boshqarishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat chuqur bilim va metodik mahoratni, balki murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali boshqara olish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik konfliktologiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni aniqlash, tahlil qilish va konstruktiv hal etish usullarini o'rganuvchi sohadir.

Pedagogik konfliktologiya — ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik nizolarni o'rganadigan fan sohasi. Bu yo'nalish umumiy konfliktologiya nazariyalariga tayanadi. Jumladan, konfliktologiya asoslari Lewis Coser, Ralf Dahrendorf va Kenneth Boulding kabi olimlarning ilmiy qarashlariga asoslanadi.

Pedagogik konfliktlar quyidagi subyektlar: o'qituvchi – o'quvchi, o'qituvchi – ota-ona, o'qituvchi – o'qituvchi, o'qituvchi – ma'muriyat o'rtasida yuzaga kelishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi deganda o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining uyg'unlashgan majmuasidir. U quyidagilarni: pedagogik bilim va metodik mahorat, kommunikativ kompetensiya, psixologik tayyorgarlik, emotsional barqarorlik, konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik konfliktologiyaning kasbiy kompetensiyani oshirishdagi o'rni quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Konfliktologiya o'qituvchiga samarali muloqot yuritish, faol tinglash, empatiya ko'rsatish va nizoli vaziyatlarda to'g'ri so'z tanlashni o'rgatadi. Bu esa o'qituvchining kommunikativ mahoratini oshiradi.

2. Emotsional intellektni shakllantiradi. Pedagogik jarayonda hissiyotlarni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Konfliktologiya o'qituvchiga stressni boshqarish, agressiyani nazorat qilish va ijobiy psixologik muhit yaratishni o'rgatadi.

3. Nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmasini shakllantiradi. Har bir konflikt salbiy emas. To'g'ri boshqarilgan konflikt rivojlanish manbai bo'lishi mumkin. O'qituvchi nizoning sababini aniqlash, tomonlarning manfaatlarini hisobga olish va murosaga erishish yo'llarini bilishi zarur.

4. Pedagogik madaniyatni oshiradi. Konfliktologik bilimga ega o'qituvchi vaziyatni adolatli baholaydi, shaxsga emas, muammoga e'tibor qaratadi. Bu esa pedagogik etikani mustahkamlaydi va kasbiy obro'ni oshiradi.

5. Ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Sog'lom psixologik muhit yaratilgan sinfda o'quvchilarning o'zlashtirishi yuqori bo'ladi. Konfliktlarning kamayishi dars jarayonining samaradorligini oshiradi.

Pedagogik konfliktologiya o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. U o'qituvchining kommunikativ, psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini boyitadi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishga yordam beradi. Natijada ta'lim jarayonida sog'lom muhit shakllanadi va pedagogning kasbiy mahorati yuksaladi.

Pedagogik konfliktologiya o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. U o'qituvchiga ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni to'g'ri anglash, tahlil qilish va konstruktiv yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada pedagogning kommunikativ mahorati, emotsional barqarorligi va psixologik tayyorgarligi rivojlanadi.

Konfliktologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchi guruhda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi, o'quvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, pedagogik konfliktologiya o'qituvchining kasbiy mahoratini yuksaltirish va ta'lim sifatini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya O'quv qo'llanma 2020 y.
2. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
3. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУФУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
6. Chorieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
7. Durdon, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
8. Durdon, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.